


2025-yilda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash borasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida MA'LUMOT

Vazirlikka **2025-yil** davomida jismoniy va yuridik shaxslardan jami **12 908 ta** murojaatlar kelib tushdi. Murojaatlar soni o'tgan yilga nisbatan **2,9 foizga (376 taga) kamaygan**.



Ma'lumot uchun: 10 725 ta elektron (83%), 1 684 ta yozma (13%), 499 ta og'zaki (4%) murojaat kelib tushgan.

Murojaatlarning **15,3%** Toshkent shahridan, **9,5%** Qashqadaryo, **8,3%** Samarqand, **8,1%** Jizzax, **7,9%** Toshkent, **7,6%** Surxondaryo viloyatlaridan va **43,3%** boshqa hududlardan kelib tushgan.

Kelib tushgan murojaatlarning **20,8% (2684 ta)** qabul jarayonlari va o'qishga qabul qilish, **13,9% (1807 ta)** o'qishni ko'chirish va qayta tiklash, **10,1% (1418 ta)** diplom masalasi, **7,8% (1015 ta)** ta'lim muassasasi faoliyatiga oid masalalar, **6,9% (897 ta)** kontrakt to'lovi, **4,1% (520 ta)** ta'lim muassasasi xodimlari faoliyatidan norozilik, **3,8% (491 ta)** oraliq nazorat va yakuniy davlat attestatsiyasi, **3,8% (474 ta)** talabalar turar joyi, **3,6% (332 ta)** moliyaviy masalalar (ish haqi, stipendiya, moddiy yordam), **2,4% (313 ta)** ish masalasi, **2,1% (265 ta)** ilmiy tadqiqot faoliyati, **20,7% (2692 ta)**ni esa boshqa masalalar tashkil etadi.

Ko'rib chiqish natijalariga ko'ra murojaatlarning **3719 tasi (28,9%)** ijobiy hal etilgan, **3531 tasiga (27,3%)** huquqiy ma'lumot berilgan, **125 tasining (0,9%)** ko'rib chiqilishi tugatilgan, **35 tasi (0,2%)** ko'rmadan qoldirildi, **5331 tasi (41,4%)** hududiy idoralarga yuborilgan va tegishli vazirliklarga yuborilgan, **167 tasi (1,3%)** ko'rib chiqilmoqda.

Fuqarolar tomonidan eng ko'p yo'llanayotgan masalalar hamda mazkur masalalarning hududlar kesimida dinamikasiga ko'ra, muammoli hududlar aniqlanib, mazkur hududlarda vazirlik rahbariyatining sayyor qabullari tashkil etilmoqda. Xususan, joriy yilda **vazirlik rahbariyati tomonidan hududlarda 11 marotaba sayyor qabullar o'tkazildi.**

Oliy, professional va o'rta maxsus ta'lim masalalarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday savollarga tezkorlik bilan javob berishni yo'lga qo'yish maqsadida vazirlikda **Ishonch telefonining samarali faoliyati yo'lga qo'yilib**, hisobot davrida fuqarolarning **119 mingdan ortiq** qo'ng'iroqlarga javob berildi.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish **53,3 %** ga kontrakt to'lovi **27,8 %** ga, talabalar o'qishini ko'chirish **18,1 %** ga, talabalar turar joyi **12,5 %** ga, qabul jarayonlari va o'qishga qabul qilish **2,4 %** ga, **kamayishiga erishildi.**